TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING DOLZABRLIKLARI

Yusupova Shoxista Alimjanovna, Guliston davlat universiteti, Tasviriy san'at o'qituvchisi.
e-mail: yusupovashoxista32@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at dars mashg'ulotlarining mazmuni va ta'lim tarbiyaning ahamiyati. Bugungi kunda yoshlarga berilayotgan imkoniyatlar, maktablarida tasviriy san'at darslarining tashkil etilgani va qay holatda mashg'ulotlarning faoliyati, interfaol metodlarda qo'llanilishining muhim ahamiyati va uning afzalliklari xaqida ma'lumotlar berilgan. An'anaviy va noan'anaviy dars mashg'ulotlarining ijobiy va salbiy tomonlari to'g'risida misollar keltirilgan. Tasviriy san'at mashg'ulotlarida qaysi metodlardan foydalanilsa etarli maqsadga erishilishi tog'risida tavsiyalar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: maqsad, tasviriy san'at, dars, o'qituvchi, o'quvchi, ta'lim, zamonaviy vosita, an'anaviy va noan'anaviy metodlar, pedagogik texnologiya, interfaol.

РЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ НА УРОКАХ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА.

Аннотация. В данной статье содержание занятий изобразительным искусством в общеобразовательных школах и значение образования. Предоставляется информация о возможностях, предоставляемых молодежи сегодня, организации занятий изобразительным искусством в их школах и деятельности классов, важности использования интерактивных методов и их преимуществах. Приведены примеры положительных и отрицательных сторон традиционных и нетрадиционных занятий. Даны рекомендации, какие методы использовать на занятиях по изобразительному искусству для достижения желаемой цели.

Ключевые слова: цель, изобразительное искусство, урок, учитель, ученик, воспитание, современные средства, традиционные и нетрадиционные методы, педагогические технологии, интерактив.

ADVANTAGES OF USING INTERACTIVE METHODS IN THE LESSONS OF FINE ARTS

Abstract. In this article, the content of fine art classes in secondary schools and the importance of education. Information is provided on the opportunities provided to

young people today, the organization of visual arts classes in their schools and class activities, the importance of using interactive methods and their benefits. Examples of positive and negative aspects of traditional and non-traditional activities are given. Recommendations are given on what methods to use in the classroom in fine arts to achieve the desired goal.

Keywords: goal, fine arts, lesson, teacher, student, education, modern means, traditional and non-traditional methods, pedagogical technologies, interactive.

Kirish (*Introduction*).

Davlatimiz siyosatining ustivor yo‘nalishlaridan biri ta’lim-tarbiyani yuksaltirish va barkamol avlodni voyaga etkazish asosiy maqsad bo‘lib hisoblanib kelmoqda. Xozirgi kunda iqtisodiy va siyosiy soxalardagi barcha isloxatlarning asosiy maqsadi, yurtimizdagi fuqarolar uchun munosib xayot tarzini va sharoitlarini tashkil qilinishidan iboratdir. Ta’lim-tarbiya jarayoni o‘qituvchining o‘rgatuvchilik faoliyatini va ta’lim oluvchi ya`ni o‘quvchilarning maxsus tashkil etilgan bilish faoliyati hozirgi kunda muhim ahamiyatga egadir. Shu o‘rinda bu jarayonlarning tahliliga e’tibor qarataylik. Bularning barchasi pedagogning ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlarni amalga oshirishida o‘z aksini topmog‘i lozim. Shunday maqsadlardan kelib chiqib aytishimiz mumkunki, ta’lim jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarga qo‘lga kiritilgan barcha bilimlarni o‘z uslubi asosida o‘rgatadi. Ta`lim jarayonida o‘quvchilarni bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantiradi. Shu bilan bir qatorda u ta’lim oluvchilarda dunyoqarash va axloq normalarini hosil qiladi, qiziqtirib va qobiliyatlarni shaklantiradi, ularning shaxsiy fazilatlarini rivojlantirib takomillashiga zamin yaratadi. O‘zbekistoning barkamol avlodga yanada mukammalashtirilgan ta’lim berish va ularga bilim berish jarayonida interfaol metodlarni qo‘llash, yoshlarda yanada fanga bo‘lgan shijoatlarini oshirib, o‘qituvchilarning o‘z oldiga qo`ygan maqsadlariga erishda muhim omil bo‘la oladi.

Milliy va jahon san’at asarlarining eng yaxshi namunalarini targ‘ib qilish va ommalashtirish, yosh avlodni ma’naviy va ma`rifiy tarbiyalashning asosi bo‘lmoq kerak. Shu o‘rinda O‘zbekiston Resrublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan o‘quvchi-yoshlarni ijodkorligi va tashabbuskorlikni yanada shakllantirish, ularni bo‘sh vaqtlarini sermazmun va unumli o‘tkazish maqsadida, yoshlarning o‘z iqtidorlarini namoyish etish borasida tavsiya etilgan 5 ta muhum tashabbusning “1-Tashabbus” san’at sohasining bir qancha turlari bo‘yicha Yoshlarni musiqa, rassomchilik, teatr va san’atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish bo‘yicha, qobiliyatlarini namoyon qilishni ta’minlash choralarini ko‘rish kabi qator vazifalar belgilandi. Demak, bu bildirilgan e’tiborga javoban o‘qituvchilar yanada ko‘proq o‘z ustida ishlangan holda, vatanimizga iqtidorli va iste’dodoli yoshlarni yuzaga chiqarmoq kerak. Buning natijasini esa albatta maktab faoliyatidan boshlab amalga oshiriladi. “Tasviriy san’at” o‘quv predmeti ma’naviy madaniyatning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan badiiy madaniyatni uyg‘un rivojlanishga xizmat qiladi va shaxs uchun muhim bo‘lgan qator sifatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Bu esa o‘quvchilarni milliy merosni o‘zlashtirish hamda umuminsoniy qadriyatlar bilan yaqindan tanishishlari uchun imkoniyat yaratadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (*Literature reviyew*).

Biroq umumiy o‘rta ta’lim maktablarida hozirgi kunda tasviriy san’at fani dars jadvalida kam vaqt ajratilganligi sababli, o‘quvchilar bilan ish faoliyatini olib borishning qulay shakli qisqa muddat ichida interfaol metodlardan foydalanib o‘quvchilar qiziqishini ko‘proq jalb etish muhim omil bo‘lib kelmoqda. Biroq, bugungi kunda bu mashg‘ulotlar juda ham oddiy ko‘rinishda ya’ni an’anaviy tarzda o‘tkazilmoqda. Bugungi yoshlarning qiziqish va talablari yuqori bo‘lgan vaqtda bu tarzda olib borilayotgan mashg‘ulotlar o‘quvchilarning chanqog‘ini mutloqo qondirilmayapti. O‘qiuvchilar esa o‘z faniga juda mas’uliyatsizlik qilib qarashmoqda. Tasviriy sahasini yanada rivojlantirishda biz umumta`lim maktablarining boshlang‘ich bilimlarini puhta berishimiz kerak. Bunda albatta, o‘qituvchilarning o‘z ustida ishlashi va tashabbuskotligiga bog‘liqdir. Mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchilar tasviriy san’at turlari (haykaltaroshlik, me’morchilik, grafika, rangtasvir, dekorativ va amaliy san’at)dan olgan bilimlarini kengaytirib, uning biror turi bilan amalda mukammal shug‘ullanadilar. Tasviriy san’at sohasida asar ustida qanchalik vaqtingiz ko‘proq ijod uchun ajratilsa, u asar albatta mukammal darajaga erishiladi. Bular nafaqat tasviriy san’at (rasm) balki, amaliy san’at(naqqoshlik), rangtasvir(dastgohli rangtasvir), grafika, me’morchilik, chizmachilik, haykaltoroshlik va boshqa mashg‘ulotlari ham bo`lishi mumkin.

Hammaga ma’lumki, kadrlar tayyorlashda yanada yuqori natijalarga erishish uchun ta’limning yakuniy maqsadlarini adekvat anglash, uni takomillashtirish va mazmunan zamonaviylashtirish, ayniqsa, o‘qitishning interfaol metodlari va zamonaviy didaktik vositalarini qo‘llash va rivojlantirib uni takomillashtish borasida keng qamrovi bilan maqsadli ishlarni amalga oshirish ta’lim-tarbiya sohasidagi strategik vazifalarning asosiy yo‘nalishlari asos bo‘lib belgilandi. Jumladan, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalari asosida o‘quvchilarni tasviriy san’atga bo‘lgan qiziqishlarini yanada rivojlantirishning metodik asoslarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq “Uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish” bugungi kunda muhim vazifalardan biri bo`lib hisoblanib kelmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi (*Research Methodology*)

Tasviriy san’at mashg‘uloti umumiy o‘rta ta’lim maktabida haftasiga bir marotoba faoliyat olib boriladi. Dars mashg‘ulotlari sodda mavzulardan murakkab mavzular asosida sinflar kesimida mashg‘ulotlar olib boriladi. Mashg‘ulotlarda tasviriy san’at turlari, janrlari va ishlash texnikasi bo‘yicha mashg`ulotlari faoliyati yuritiladi. Bunday ma’lumotlarni mashg‘ulot jarayonida etkazishda test, slayd yoki krasvordlardan foydalanilsa, o‘quvchilarning xotirasida uzoq mustahkamlanib saqlanadi. Ayniqsa, ranglar bo‘yicha ma’lumotlar aniq va tushunarli tarzda olib borilishi lozim. Tabiatdagi mavjud ranglar asosan ikki qismga bo‘linadi. Bular axromatik va xromatik ranglarga ajratiladi. Biror rang tusiga ega bo‘lgan ranglar oq, qora va kulrangdan tashqari esa xromatik ranglarga kiradi. Quyosh spektorini barcha

ranglari hamda ularning bir-birlari bilan aralashuvidan hosil bo‘lgan barcha ranglar xromatik ranglar deb ataladi. Bu xromatik va axromatik ranglarning farqi shundaki, yorug‘lik kuchlari bilan emas, balki nomlari, tuslari jihati bilan ajralib ko‘rinadi. Yana shuni aytib o‘tish joizkim, har bir xromatik rang uchta xossaga: rang tusi, rang yorqinligi, rang to‘yinganligidan bo‘linadi. Mashg‘ulot davomida katta guruhlarda ancha murakkab xarakatdagi yoki naturada turgan odam va hayvonlar rasmini chizishni o‘rganadilar. Bunday ma`lumotlarni o‘quvchilarga aniq va tushunarli etkazish o‘qituvchuning pedagogik qobiliyati va mahorati muhim rol o‘ynaydi. Agar mashg‘ulotlar interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalari asosida o‘quvchilarni qiziqtirish usullaridan foydalanib dars o‘tilsa, tasviriy san’at dars faoliyati yanada takomillashib yuqori natijalarni ko‘rsatadi. Bunda o‘qituvchi albatta inrerfaol metodlarga suyanadi. Bu borada fan o‘qituvchisi faoliyati jarayonida o‘quvchilarni tasviriy san’atga qiziqtirish maqsadida bu metod va usullarini bilmog‘i juda muhimdir.

Tasviriy san’at darsning har bir a’zosi mashg‘ulotlarga muntazam ravishda faol qatnashishi, berilgan topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarishi, har bir ishiga mas`uliyat bilan yondashishi, fanni yaxshi o‘zlashtirishi, maktab, jamoat va yoshlar ijtimoiy harakati ishlarida faollik ko‘rsatmog‘i lozim. Biroq hozirgi tashkil etilgan tasviriy san’at darslari oddiy mashg‘ulot tarzda o`tilmoqda. Ba’zi fan o‘qituvchilari esa mashg‘ulotlarni ko‘r-ko‘rona nomiga olib bormoqda. Darslarning sifati talab darajasida emas. Mashg`ulotlarda fanga bo‘lgan qiziqishlari kamayib ketmoqda, faol, qiziqqan va tashabbuskor o‘quvchilar juda kam. O‘qituvchilar mashg‘ulotlarni vijdonan yoki sidqi dildan yondashgan holda noa`naviy usulda interfaol metodlardan foydalanib, qiziqarli tarzga o‘tilsa qiziquvchilar soni oshib, ushbu sohaning yanada gullab yashnashiga o‘z hissalarini qo‘shgan bo‘ladilar. O‘quvchilar har mashg‘ulot oldidan o`qituvchimiz bugun qanday o‘yin yoki yangilik o`rganar ekanmiz degan qiziqish bilan darsga tashrif buyurishadilar. Yuqoridagi kamchilikni oldini olish uchun bugungi tezkor zamonda ta’lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo‘li – tasviriy san’at mashg‘ulotlarni interfaol metodlar yordamida tashkil etishdir.

Ta’lim tizimida o‘qitish tizimi va usul metodlarining juda boy xazinasi to‘plangan bo‘lib, ushbu merosdan foydalanish o`qituvchining o‘z ustida ishlashiga va mehnat qilishiga bog‘liq. Barcha o`qituvchilar ta’limning rivojlanishida interfaol metodlardan to‘g‘ri foydalana olsa, albatta ko‘zlagan maqsadga ishonch va qisqa yo‘l bilan erisha olishlari aniq. Bunda albatta mashg‘ulot rahbarining roli muhimdir. Agar mashg‘ulotlar interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalari asosida o‘quvchilarni qiziqtirish usullaridan foydalanib o‘tilsa, tasviriy san’at samaradorlik faoliyati yanada takomillashib yuqori natijalarni ko`rsatishi aniq.

Tahlil va natijalar (*Analysis and results*).

Izlanishlar natijasida ushbu maqolaning maqsadi tasviriy san’at mashg‘ulotida o‘qituvchi darsga jiddiy va mas`uliyat bilan yondashishga undashdir. Buning vazifalari quyidagilardan iboratdir:

1. Tasviriy san’at darslarida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishda intarfaol metodlarni takomillashtirishning falsafiy va pedagogik-psixologik jihatlarini tahlil etish;

2. Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiya asosida dars mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish mexanizmini ishlab chiqish;

3. Vitagen texnologiyalar vositasida darslarda o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning metodik ta’minotini takomillashtirish;

Mashg‘ulot jarayonida mazkur vazifalarni ta’lim texnologiyalari negizida qo‘llash o‘quvchilar natijalarini yuqoriga olib chiqishda yanada samarali sanaladi. Qolaversa, zamonaviy sharoitda tasviriy san’at darslarida o‘quvchilar ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda ijodiy faoliyat jarayonini tashkil etib, metodik jihatdan to‘g‘ri va samarali tashkil etishda ta’lim texnologiyalaridan foydalanish ham muhum talab qilinadi. Bugungi kunda respublika uzluksiz ta’lim tizimida o‘ndan ortiq ta’lim texnologiyalaridan foydalanib kelmoqda. Tasviriy san’at darslarida o‘quvchilar ijodiy qobiliyatini rivojlantirish uchun ta’lim texnologiyalari orasidan individual, muammoli, tabaqalashtirilgan, interfaol, loyiha va innovatsion ta’lim texnologiyalari tanlab olindi.

Tasviriy san’at dars faoliyatining muvaffaqiyati ko‘p jihatdan o‘quvchilarning mashg‘ulotga va o‘qituvchi faoliyatiga bo‘lgan qiziqishlarini shakllantirish va bu qiziqishni doimiy ravishda oshirib borishga bog‘liq. Mashg‘ulot a’zosida tasviriy san’atga qiziqishi bo‘lmaganlardan yaxshi natija kutib bo‘lmaydi. O‘qituvchining qimmat vaqti va mehnati sarflangani qoladi. Agar mashg‘ulotlar o‘yinli tarzda interfaol metodlarga tayanib, har mavzuda qiziquvchi a’zo o‘ziga kerakli ma’lumotlarini olaversa keyingi mashg‘ulotni intiq bo`lib kuta boshlaydi. Dars mashg‘uloti jarayonida o‘quvchi mashg‘ulotdan natijani ongli va ruhiy ravishda olgandagina va unga ishonchi hosil bo‘lganda mashg‘ulotida qiziqishi yanayam ortib boradi. O‘qituvchining mehnatini ham mas`uliyatni bo‘yniga olgan holda his qilib yuzaga chiqaradi.

Tasviriy san’at dars mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning qiziqishlarini oshirishning bir qator yo‘llari mavjuddir bular:

- san’atning mohiyatini o‘quvchilar ongiga singdirish;
- mashxur san’at namoyandalarining hayoti va ijodi yuzasidan suhbatlar o‘tkazish, filmlar namoyish etish va albomlar tayyorlatish;
- meyorini olgan holda, o‘quvchilarning erishgan yutuqlarini yuzaga chiqarib qayd qilish, rag‘batlantirish va ibratli ishlarni barcha o‘quvchilarga namoyish etish;
- mashxur va qiziqarli bo‘lgan san’at asarlari, rassomlar haqida suhbat, savol-javob va munozara o‘tkazish;
- muvaffaqiyatga erishgan o‘quvchilarning ishlaridan ko‘rgazmalar tashkil etish va ularning ishlarini shahar, tuman, viloyat va respublika ko‘rgazmalariga tavsiya etish;
- har bir mashg‘ulotda o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarga yangi bilim, tushuncha va malakalar berish;
- tasviriy san’at mashg`ulotlarida o‘yin, savol-javoblar, musobaqa tarzda tashkil etish(viktorina, krosvord, chaynvord echish);
- o‘quvchilarning tasviriy ijodi uchun ularni ruhiy holati bo‘yicha qiziqtirgan mavzularini tavsiya etish;

- mashg‘ulot jarayonida muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirib va uni echish darsini o`tish;

- mashg`lotlarda ishtirokchilarni yirik muzey va ko‘rgazmalarga olib borib, sayohatlarni tashkil etish.

Shuni takidlab o‘tish joizkim, o‘quvchilarni qiziqishlarini oshirish maqsadida, aniq bir mavzularni tanlashda bir yoqlama qarash yaramaydi. Buning uchun faqat mavzularning va vazifalarning qiziqishlari bo‘lishiga emas balkim, bu materialning o‘quvchilar idroki, qobiliyatiga, ruhiy holatiga, mahoratiga, tasviriy imkoniyatiga mosligiga e’tibor qaratmoq kerak.

Bu esa, o‘z navbatida tasviriy san’at mashg‘ulotlarini tashkil etishning samarali shakllari sifatida muammoli metodlar, interfaol metodlar, amaliy o‘yinlar, o‘quv loyihalari, grafik organayzerlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish zaruratini olib keladi. Tasviriy san’at mashg‘ulotida rasm chiziladigan natura, obe’kt, mavzuni o‘quvchining o‘zi idrok etishi, tasavvuri bilan tahlil qilishi, olingan taassurotlar suyangan holda rasm chizishi lozim. Buning uchun rasm chiziladigan narsa va voqea haqida o‘qituvchi batafsil ma’lumot berish, rasm chizish yo‘llarini ilmiy asosda slayd, rasmlar, vidiorolik orqali tasavvuriga singdira olish lozim. Bunday vaziyatlarda o‘qituvchi noan’anaviy o‘yinlardan foydalansa, mashg‘ulotlar yanada qiziqarli va sermazmun tarzda olib boriladi. O‘quvchilar rasm chizish ya’ni kompozitsiyani yaratish vaqtida mayda elementlarga diqqat e’tiborini qaratib, kuzatuvchanligini ishga solgan holda ijod qiladilar. O‘quvchilarning faol ijod qilishda esa o‘qituvchining har bir mavzuga puhta tayyorlagani o‘yin va ko‘rgazma texnologiyalari juda yaxshi samarasini ko‘rsatadi. O‘quvchilarning narsaga qarab rasm chizishda ko‘proq ularga kundalik xayotida ko‘p to‘xtaladigan va tanish bo‘lgan narsa - buyumlar ishtirok etadi. Umuman olganda, amaliy mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning faolligini oshirishning ko‘plab usul va vositalari mavjud bo‘lib, bunda albatta, xar bir o‘qituvchining izlanuvchanligi va ijodkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Mashg‘ulotlarda yangi metodlardan foydalanishi va dars jarayoni puxta tayyorlanishida axborot texnologiya bilimlariga tayanadi. Yana shuni ta’kidlash joizki, mashg‘ulotlar jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarning har bir yutug‘i uchun rag‘batlantirishi va o‘quvchilarning ruhiyatini ko‘taruvchi barcha usullardan foydalanishi ham yuqori natijani ko‘rsatadi. O‘quvchilarda belgilangan yutuqqa erishishda oliy maqsadi, mas’uliyati va xissi rivojlanadi.

Demak, o‘qituvchilar tasviriy san’at mashg‘ulotlarini tashkil etishida quyidagilarga ham ahamiyat berishi lozim:

1) Tasviriy san’at mashg‘ulotlarida innovatsion texnologiyalar asosida darslarni tashkil etish va takomillashtirish pedagogik-psixologik jihatlarini tahlil etish;

2) Tasviriy san’at dars mashg‘ulotlarida texnologiya asosida o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish;

3) Tasviriy san’at mashg‘ulotlarida vitagen texnologiyalar vositasida o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning metodik ta’minotini takomillashtirish;

4) Tasviriy san’at dars mashg‘ulotlarida kompetentsiyaviy va refleksiv yondashuv asosida o‘quvchilarning ijodiy qobiliyati rivojlanganlik darajasini tashxislovchi mezonlarni takomillashtirish.

Ta’lim tizimi omili soddadan murakkabga qarab bosqichma-bosqich o‘qitish me’yori hisoblanadi. Shu sababli, o‘quvchilarning rasm chizishni o‘rganishida boshlang‘ich tasvirlari xandasiy shakllarni chizishda alohida e’tibor qaratiladi. Buning natijada oddiy tasvirlarni sifatli qilib tasvirlashda ancha engilliklar keltirib chiqaradi. So‘ng keyingi murakkab tuzilishdagi tasvirlarni rasmini chizishga bosqichlar asosida o‘tiladi. Xoxlagan tasvirni chizishda geometrik shakllardan foydalansa, prespektiva xodisalarini to‘g‘ri tasvirlashga ko‘mak beradi. Tasvirlanayotgan har bir mavjudlarning o‘z o‘lchovi, xajmi va ko‘rinishiga egadir. Bularning barchasini inobatga olishimiz kerakki, tasvirni eni, bo‘yi, qalinligi, balandligi, bir-biriga nisbatlari, uning katta kichikligini inobatga olib uni nafaqat ko‘rib balkim xis qilmoq lozim. Har bir soxani ijodkori uchun rasm chizishni bilish unga katta ijodiy imkoniyat va ozuqa beradi. Yoshlarga oziqaning samarasini esa interfaol metodlar muhum ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar *(Conclusion/Recommendations)*

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida dars mashg‘ulotlarida olib borilgan kuzatishlar natijasida, ko‘pchilik o‘qituvchilar turli xil materil va tasvirlash texnikasini qo‘llashga e’tibor qaratishmaydi. Mashg‘ulotlar juda ham zerikarli va samarasiz olib boriladi.

Bundan ko‘rinib turibdiki, tasviriy san’at mashg‘ulotlari oddiy ya’ni an’anaviy ko‘rinishida emas balkim, ba’zi hollarda no‘anaviy texnologiyalardan foydalanilsa o‘qituvchi o‘z oldigan qo‘ygan maqsadiga yanada tezroq erishadi. Dars mashg`uloti jarayonlarida muammoli metodlar, interfaol metodlar, amaliy o‘yinlar, o‘quv loyihalari, grafik organayzerlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo‘lgan bo‘lar edi.

An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda dars jarayoni oqilona tashkil etilishi, o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishlarini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rivojlantirib turilishi, o‘quv mavzuni kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib ularning mazmunini ochishda bahs-munozara, aqliy hujum, o‘z fiklarini isbotlab berish qobiliyatini rivojlantirishga undash, kichik guruhlarda ishlash, rolli o‘yinlar metodlarini qo‘llash, rang-barang qiziqtiruvchi savol-javoblar va ularga misollar keltirish, o‘quvchilarni berilgan amaliy mashg‘ulotlarni mustaqil bajarishga undash, har xil baholash usullari va ta’lim vositalaridan o‘z o‘rnida va vaziyatga qarab joyida foydalanish talab etiladi. Interfaol metodlaning keng miqiyosda ta’lim jarayoniga tatbiq etilayotganligining boisi shundaki, unda o‘quv maqsadlariga garovli erishiladi. Texnologik yondashuvning eng avvalo yuzakichilikka emas, balki rejalashtirilgan natijani amalga oshirish imkonini beruvchi samarali yondashuv ekanligini anglagan o‘qituvchilar uni o‘z faoliyatlariga yondashgan holda tatbiq etishlariga omil bo‘la oladi. An’anaviy o‘quv jarayonida asosiy omil-pedagog hisoblansa, pedagogik texnologiyada birinchi o‘rinda o‘qish jarayonidagi o‘quvchilar faoliyati qo‘yiladi.

Hozirgi zamon ta’limida bugungi kun yoshlaning talabiga muvofiq o‘qituvchi o‘z faoliyatida birqator vazifalarni amalga oshirishi lozim. Birinchidan, o‘z faoliyatini tahlil qilish, ijodkorlik, izlanish, qiyoslash, yo‘l qo‘ygan uslubiy kamchiliklarni tanqidiy baholab, ularni bartaraf etishni o`rganish, o‘z ish faoliyatini yanada takomillashtirish ustida tinimsiz mehnat qilish, pirovard natijada o‘z faoliyatining mukammal, o‘ziga xos shakl va uslubini belgilab maqsad qilib olishi kerak. Ikkinchidan, ilg‘or, tajribali, yutuq va imkoniyatga ega bo‘lgan hamkasblarining ish tajribalarini qunt bilan o‘rganish, o‘z sharoiti va imkoniyatidan kelib chiqib, ularni amaliyotga qo‘llay olishi va takomillashtirib borish lozim. Uchinchidan, yuqori natijalarni ko`rsatgan xorijiy pedagogik tajribalarni ijodiy va amaliy o‘rganishi lozim. To‘rtinchidan, respublikamizda va xorijiy mamlakatlarda chop etilayotgan pedagogik texnologiyalar va metodik yangiliklarni uzluksiz tarzda kuzatib, o‘ziga kerak ma`lumotlarni qayd etib borish kerak.

Tasviriy san’at mashg‘ulotlari jarayonida interfaol metodlaridan foydalanishda o‘quvchilarning egallayotgan bilimlari mustahkam bo‘lishiga, ularning qo‘shimcha adabiyot o‘qib, mustaqil izlanishlariga, tasviriy san’at materialni o‘zlari qiyosiy tahlil qila olishlari va ular asosida xususiy xulosasini chiqarishga turtki bo`ladi. Shu bois ta’lim metodlariga jiddiy e’tibor berish hozirgi kun muhum talablariga aylanib kelmoqda.

Biz texnologiyalar kundan-kunga rivojlanayotgan davrda yashamoqdamiz. Rivojlanishlar natijasida o‘quvchi yoshlar, o‘qituvchilardan yanada kunli va qiziqarli ma`lumotlarni talab etmoqda. Bugungi kunda, darsning ta’limiy maqsadiga bir emas, bir necha metodlardan foydalanish evaziga erishilmoqda. Agar mashg‘ulotlar jarayonida samaradorlik darajasi pasaysa yoki o‘sish kuzatilmasa, darrov xushyorlik tortib, metodni o‘zgartirishga tog‘ri keladi. Yangi mavzu bayoni bo‘limida muammoli vaziyat hosil qilish uchun “aqliy hujum”, “zinama-zina”, “tanqidiy fikrlash”, “galereya”, “rolli o‘yini”, “bumerang”, “muammoli vaziyat” va “klaster” metodlaridan, zaruriyat tug‘ilganda an’anaviy tushuntirish metodidan foydalanish mumkin.

Har bir mashg‘ulotlarni turli hil va eng yaxshi saralangan o‘qitish metodlarini qo‘llagan holda tashkil etilsa, o‘quvchilarning mustaqil aqliy faoliyatini faollashtirishga, o‘quvchining nazariy bilimlarni to‘liq o‘zlashtirishlariga yordam beradi. Buning samarasining natijasida esa o‘qituvchining o‘z kasbiga qiziqishi ortib borishiga va o‘z ustida yanada mehnat qilib yuqori natijalarga erishish istagini olib keladi. Darslarda berilayotgan ilmiy-nazariy bilimlar yordamida o‘quvchida mustaqil fikrlay olishiga, dunyoqarashi, tasviriy san’at borasidagi bilimlarining otrib borishiga sharoit yaratiladi. Aksincha, bir xil metodning qo‘llanishi yoki uning noto‘g‘ri qo‘llanilishida esa o‘quvchidagi fanga bo`lgan qiziqishini so‘ndiradi, zerikadi va uning aqliy faoliyatini susaytiradi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, o‘qituvchi interfaol usullarni ko‘p bilsa, o‘z pedagogik faoliyatida faqat yagona bir metodning o‘zi bilan chegaralanib qolmay, amaliyotda ularni bir-biriga qiyoslab, darsning ta’limiy maqsadlariga muvofiqligini tanlab dars o‘tish imkoniyatlari shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. R. Xasanov, H. Egamov. Tasviriy san’atdan dars ishlanmalari. – T.:-2013 y.
2. S. F. Abdurasulov. Tasviriy san’at va uni o‘qitish metodikasi. Pedagogika kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. – T.: “ILM-ZIYo”, 2011 y.
3. B. N. Oripov. Tasviriy san’at va uni o‘qitish metodikasi. “ILM ZIYo”, – T.: 2016 y.
4. R. Xasanov. Tasviriy san’at asoslari. – Toshkent, 2008 y.
5. S. F. Abdurasulov Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi. – Toshkent. 2002 y.
6. O‘. J. Yo‘ldoshev. Umumiy pedagogika. taxriri ostida. O‘quv qo‘llanma. – T. 2017 y.
7. B. N. Oripov. Tasviriy san’at va uni o‘qitish metodikasi. “ILM ZIYo”, – T. 2016 y.
8. N. N. Azizxo‘jaeva. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T. 2006 y.
9. S. Abdurasulov, N. Tolipov. Rangtasvir. Darslik. – T.: “Innovattsiya-ziyo”, 2019 y.